

“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatি yagona aksiyadorining 4-son qarori

2023-yil 22-may

Toshkent shahri Shayxontohur
tumani Navoiy ko‘chasi, 38-uy.

KUN TARTIBI:

1. “O‘zkimyosanoat” AJ yagona aksiyadorining 2023-yil 27-yanvardagi 2-son qarorini bekor qilish.
2. “O‘zkimyosanoat” AJning qo‘srimcha aksiyalarini chiqarish orqali ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish to‘g‘risida.
3. “O‘zkimyosanoat” AJning aksiyalar qo‘srimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorini tasdiqlash to‘g‘risida.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **qaror qabul qilindi:**

1. “O‘zkimyosanoat” AJ yagona aksiyadorining 2023-yil 27-yanvardagi 2-son qarori bekor qilinsin.
2. “O‘zkimyosanoat” AJning 904 063 950 935 so‘mlik ustav fondini 1 393 724 107 775 so‘mga yetkazish uchun nominal qiymati 1 145 so‘mdan bo‘lgan 427 650 792 dona umumiy qiymati 489 660 156 840 so‘mlik egasining nomi yozilgan oddiy qo‘srimcha aksiyalar chiqarilsin.

3. Qo‘srimcha aksiyalarni joylashtirish tartibi va shartlari quyidagicha belgilansin:

Aksiyalar jamiyatning yagona aksiyadori – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligiga yopiq usulda birjadan tashqari uyushmagan qimmatli qog‘ozlar bozorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bitimlarni ro‘yxatdan o‘tkazish yo‘li bilan joylashtiriladi;

aksiyalarni joylashtirish qo‘srimcha aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qaror qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro‘yxatiga olingan kundan boshlab 30 kun davomida amalga oshiriladi;

aksiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi – qo‘srimcha aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qaror qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro‘yxatiga olingan kun. Agar joylashtirishning boshlanish sanasi dam olish kunlariga to‘g‘ri kelsa, joylashtirishning boshlanish sanasi o‘sha kunlardan keyingi birinchi ish kuniga ko‘chiriladi.

Aksiyalarni joylashtirishni tugatish sanasi – ushbu chiqarilishdagi eng oxirgi aksiya joylashgan sana, lekin qo‘srimcha aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qaror qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro‘yxatiga olingan kundan boshlab 30 kundan oshmasligi lozim;

ushbu chiqarilishdagi aksiyalar 1 145 (bir ming bir yuz qirq besh) so‘mdan joylashtiriladi;

aksiyalar uchun to‘lov mazkur qarorning 1-ilovasida qayd etilgan jami 489 660 157 180,13 so‘mlik aktivlar hisobidan amalga oshiriladi. Bunda 340 so‘m 13 tiyin miqdoridagi qoldiq mablag‘ davlat aktivi sifatida kelgusida hisobga olinadi.

Mazkur chiqarilish amalga oshmagan deb topilgan taqdirda, ushbu chiqarilishdagi aksiyalar to‘loviga yo‘naltirilgan mablag‘lar qonunchilikda belgilangan tartibda aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan kundan boshlab, 10 kun ichida qaytariladi.

4. “O‘zkimyosanoat” AJning aksiyalari qo‘srimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Jamiyat boshqaruvi raisi v.b. (Muxamedjanov) aksiyalar qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi qarorni belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha tegishli ishlarni amalgga oshirsin.

6. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi Bosh direktorining birinchi o'rinnbosari A. Abduqodirov zimmasiga yuklansin.

Qaror rasmiylashtirilgan sana: 22.05.2023-yil